

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)  
**Каланова Сабохат Мурадovна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. профессор (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин</b> РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
<b>2. Karimov Bobir</b> JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
<b>3. Mamatov Normurat</b> IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
<b>4. Rasulov Abdimumin</b> SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
<b>5. Xusanova Hayriniso</b> IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
<b>6. Abduxalilov Abdullo</b> NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
<b>8. Abdullayev Akmal</b> O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
<b>9. Хасанова Мавлюда</b> СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
<b>10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
<b>11. Алимухамедова Нодира</b> ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
<b>12. Tolipov Abdug‘affor</b> VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
<b>13. Berdimuratov Marat</b> YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

<b>14. Хамиджонов Умиджон</b>	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
<b>15. Ixtiyarov Farhod</b>	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
<b>16. Хасанова Мавлюда</b>	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
<b>17. Radjabova Aziza</b>	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
<b>18. Kalanova Sabohat</b>	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
<b>19. Ixomjon Xudayarov</b>	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
<b>20. Tagaymuratova Gulchehra</b>	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
<b>21. Jabborov Jaxongir</b>	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
<b>22. Ixtiyarov Farhod</b>	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
<b>23. Xasanov Sharofidin</b>	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIY TAJRIBASI.....	179
<b>24. Nurulloev Shahriyor</b>	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
<b>25. Аликариев Нуриддин</b>	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
<b>26. Alikariyeva A'loxon</b>	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Abdullayev Akmal,**

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
Universiteti dotsenti, sotsiologiya fanlari doktori (DSc)  
email: agabdullayev94@gmail.com

### **O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099414>

#### **ANNOTATSIYA**

Maqolada o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropadagi davlat va jamiyat boshqaruvi tuzilmalariga oid konsepsiyalarning sotsiologik tahlili yoritilib, ilk o‘rta asrlardan so‘ngi o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrda G‘arbiy Yevropa hududida shakllangan davlatlardagi davlat boshqaruvi usullari. Davlat boshqaruvining evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari, davlat boshqaruvining siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hamda diniy g‘oyaviy asoslari yoritiladi. Shuningdek, G‘arb mutafakkiri bo‘lmish Foma Akvinskiyning “Teologiya qiymati”, Rojer Bekonning “Buyuk insho”, Dante Aligerining “Monraxiya haqida”, Marsiliy Paduanning “Dunyo himoyachisi”, Nikkolo Makiavellining “Hukmdor”, Jan Bodening “Davlat haqidagi olti kitob”, Tomas Gobbsning “Leviafan”, Jon Lokkning “Shaxs va shaxs identikligi” hamda Sharl Lui Monteskyoning “Qonunlar ruhi” asarida keltirilgan davlat va jamiyat boshqaruviga doir konsepsiyalarining sotsiologik tahlili yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** G‘arb mutafakkirlari, sotsiologik ta’limotlar, etnik, madaniy, geosiyosiy muhit, davlat boshqaruvi, jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy tabaqalanish, tabaqa, jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy maqom, konsepsiya, ta’limot, etnik guruhlar, madaniy mansublik, ijtimoiy tabaqalar, qatlamlar, ijtimoiy guruhlar.

**Абдуллаев Акмал,**

доцент Университета журналистики и массовых  
коммуникаций Узбекистана, доктор социологических наук (DSc)  
email: agabdullayev94@gmail.com

### **СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫХ И ОБЩЕСТВЕННО-АДМИНИСТРАТИВНЫХ СТРУКТУР В ЗАПАДНОЙ ЕВРОПЕ В СРЕДНИЕ ВЕКА**

#### **АННОТАЦИЯ**

В статье представлен социологический анализ концепций государственного и социального управления в Западной Европе в Средние века, а также методов государственного управления в государствах, образовавшихся в Западной Европе в период с раннего до позднего Средневековья. Рассматриваются эволюция и этапы развития государственного управления, политико-правовые, социальные и религиозно-идеологические основы государственного управления. Также дан социологический анализ концепций государственного и социального

управления, представленных в трудах западных мыслителей: Фомы Аквинского в «Ценности теологии», Роджера Бэкона в «Великом опыте», Данте Алигьери в «О монархии», Марселла Падуанского в «Защитнике мира», Никколо Макиавелли в «Государе», Жана Бодена в «Шести книгах о государстве», Томаса Гоббса в «Левиафане», Джона Локка в «Идентификации личности» и Шарля Луи Монтескье в «Духе законов».

**Ключевые слова:** Западные мыслители, социологические учения, этническая, культурная, геополитическая среда, государственное управление, общественный менеджмент, социальная стратификация, класс, общество, община, социальные процессы, социальный статус, концепция, доктрина, этнические группы, культурная принадлежность, социальные классы, страты, социальные группы.

**Abdullaev Akmal,**

Associate Professor, University of Journalism and Mass Communications  
of the Uzbekistan, Doctor of Sociological Sciences (DSc)  
email: agabdullayev94@gmail.com

## **SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF STATE AND PUBLIC-ADMINISTRATIVE STRUCTURES IN WESTERN EUROPE IN THE MIDDLE AGES**

### **ABSTRACT**

The article presents a sociological analysis of concepts of state and social governance in Western Europe in the Middle Ages, as well as methods of state governance in states that formed in Western Europe from the early to late Middle Ages. It examines the evolution and stages of development of state governance, as well as the political, legal, social, and religious-ideological foundations of state governance. It also provides a sociological analysis of the concepts of state and social governance presented in the works of Western thinkers: Thomas Aquinas in “The Value of Theology”, Roger Bacon in “The Great Experiment”, Dante Alighieri in “On Monarchy”, Marcello of Padua in “The Defender of Peace”, Niccolò Machiavelli in “The Prince”, Jean Bodin in “Six Books of the Commonwealth”, Thomas Hobbes in “Leviathan”, John Locke in “An Essay Concerning Human Understanding”, and Charles Louis de Montesquieu in “The Spirit of Laws”.

**Key words:** Western thinkers, sociological teachings, ethnic, cultural, geopolitical environment, public administration, social management, social stratification, class, society, community, social processes, social status, concept, doctrine, ethnic groups, cultural affiliation, social classes, strata, social groups.

### **KIRISH**

Ilk oʻrta asrlarda Rim imperiyasining ikki boʻlinib ketishi natijasida imperiyaning qulashini boshlab bergan Gʻarbiy va Sharqiy Rim imperiyasi oʻzining qadimgi davlatchilik koʻrinishini ham barbod qildi. Shu bilan birga Gʻarbiy Yevropadagi qadimgi davlat va huquqiy tartibning hamda antik davriga xos boʻlgan rivojlanishning eng yuqori darajasidagi sivilizatsiyani ham yoʻq boʻlib ketishiga olib keldi. Rim va Afina davlatlaridagi uzoq vaqt davom etgan qadimgi dunyoning eng boy maʼnaviy qadriyatlarini, demokratiyani yoʻq boʻlishiga olib kelgan boʻlsada, keyinchalik tashkil topgan Gʻarb davlatlarida demokratiya qayta tiklanmadi. Rim imperiyasining qulashi Yevropada yangi davlatlar va xalqlarning shakllanishiga yoʻl ochdi. Bu yangi davlatlarda Rim va Afina kabi davlatlardagi siyosiy va huquqiy madaniyat darajasiga yetmagan boʻlsalarda, ammo ular Sharq mamlakatlariga nomaʼlum boʻlgan oʻziga xos davlatchilik va huquq shakllarini yaratishgan. Gʻarb oʻzining tarixida katta markazlashgan davlatlar boʻlganini bilgan, ammo mana shunda katta markazlashgan davlatlarni qayta tiklash imkoniyatiga ega boʻlmasdan kichik tarqoq davlatlar sifatida uzoq davrlar mobaynida dunyo sivilizatsiyalar markazlaridan uzoq boʻlgan.

### **METODOLOGIYA**

Sharq mutafakkirlarining taʼlimotlari davlat boshqaruvining sotsiologik asoslarni ochib beruvchi, ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy hodisalarni ilmiy bilishning umumiy metodi boʻlgan

dialektik metod ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi. Shuningdek, mavzuga tizimli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, tizimli tahlil kabi xususiy-ilmiy metodlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, tadqiqot predmetni Sharq mamlakatlaridagi davlat boshqaruviga doir konseptual, kognitiv, hamda gumanistik ta'limotlarning G'arbiy Yevropa sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta'sirining sotsiologik tahlili tashkil qiladi. Tarixiy metod tadqiq etilayotgan voqeaning yashash tarzini o'rganish usullarini, ichki rivojlanishning borishi to'g'risidagi qonuniyatlar ifodasi bo'lgan, xronologik uzviylikda bir-birini almashtirayotgan faktlar genezisini, hodisalar tarixini qayta tiklash yo'li bilan o'rganish usullarini o'zida ifoda etadi.

### ASOSIY QISM

G'arbdagi "O'rta asrlar" atamasi XV-XVII asrlarda paydo bo'lgan. Antik davrni qayta tiklashni orzu qilganlar XV asrgacha bo'lgan "O'rta asr"ni aslida yakkalik deb, xalqni o'z xoliga tashlab qo'yilgan davr deb atashgan. G'arb "O'rta asrlar"ni insoniyat taraqqiyotiga hech narsa bermagan davr bo'lgan. O'sha davrning ko'plab gumanist olimlari bu davrni Yevropa tarixining "Tundek qorong'i davri" (ingl. Twilight period) davri deb hisoblaganlar. O'rta asrlarga nisbatan tanqidiy munosabat an'anasi shunday asos solingan. U bugun ham tirik. "...G'arbiy Yevropa jamiyati uzoq vaqt orqaga tashlandi va taraqqiyotning yangi bosqichidan o'tishga majbur bo'ldi" deb ta'riflangan [1, – S.285].

Dispotizm (diniy g'oyalarga asoslangan mutlaq vakolatga ega bo'lgan hokimiyat) g'oyalari asosidagi davlat boshqaruv usuli Sharqda eng qadimgi davlatlarda shakllangan bo'lsa, G'arbd esa keyinroq XV asrlarda monarxiyani dispotik g'oyalar bilan uyg'unlashgan davlat boshqaruvini shakllandi. Qirolning kuchi odamlar tomonidan tabiiy ravishda Xudodan olingan kuch sifatida qabul qilingan va monarxlar tomonidan chiqarilgan har qanday normalar "Ilohiy qonun" deb qabul qilindi. Sharq davlatlari kabi davlatni boshqaruvchi qirolga qarshi chiqish yoki e'tiroz bildirish dinga nisbatan e'tiroz deb baholanib, ularga tajovuz qilish mumkin emas edi. G'arbdagi dispotik monarxiya davlat boshqaruvini Xristian dini tartibotlari asosida amalga oshirilgan [2, – S.219].

Rus tarixchi olimlari O.Jidkov va V.Saveliyevlar o'rta asr G'arbining rivojlanish xususiyatlari nafaqat monarxiya tuzumining evolyutsiyasi va uning shakllarining ketma-ket o'zgarishi bilan belgilandi. O'rta asrlar davlatining G'arbiy Yevropa modeli davlat boshqaruvini markazlashtirishga yo'l qo'ymaslik va hududlarni parchalangan holda boshqarish yo'lini tanlaganlar. Davlat boshqaruvini esa Qirol katta mulkdorlar, vassallar va quldorlar orqali erkin dehqonlar hamda shahar aholisini boshqarganlar. O'rta asrlardagi G'arbiy Yevropa davlat boshqaruvini yana yerga egalik qilish huquqi bilan bog'liq bo'lgan. Bunday sharoitda davlatning siyosiy tizimning bunday ko'rinishi davlat boshqaruvini jamiyatga tegishli bo'lgan ijtimoiy institutlar bilan aloqasi to'sib quygan deb ta'kidlaganlar [3, – S.187-192].

Bizningcha, G'arbiy Yevropa o'rta asrlarida jamiyatning asosiy qismini tashkil qiluvchi tarqoq bo'lgan qishloq jamoasi muvaffaqiyatli davlat boshqaruvini uchun hech qanday muammo tug'dirmagan. Chunki, jamiyat boshqaruvini amalga oshirgan dehqonlarning oddiy birlashmasi minimal darajada boshqaruv va sudlov funksiyalariga ega bo'lib, tom ma'noda jamiyat qirol, lordlar yoki cherkov hokimiyati ostida uzoq vaqtlar qattiq nazorat bo'lgan. Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar cherkov orqali amalga oshirilgani bois real siyosiy hokimiyat va har qanday ijtimoiy institutlar, birlashmalar diniy ruhoniylar tomonidan cherkov va ruhoniylar manfaatlaridan kelib chiqib tuzilgan. G'arbiy Yevropadagi davlatlarda etatik tuzilmalar esa salbiy ko'rinishga ega bo'lib, jamiyatga taalluqli bo'lgan har qanday masalalar ba'zida o'z xoliga tashlab qo'yilgan, ba'zida bunday funksiyalarni cherkov tomonidan amalga oshirilgan. Demak, G'arb o'rta asrlar davlatchiligida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning sust bo'lishi pozitiv etatik tamoyillar, adolatli davlat boshqaruvini, davlat boshqaruvidagi siyosiy vakolatlar davlat va cherkov o'rtasida taqsimlanishi deb izohlash mumkin.

G'arbiy Yevropadagi monarxiyaga asoslangan davlat boshqaruvini evolyutsiyasini quyidagicha turkumlash mumkin:

birinchi davr – ilk feodal monarxiya davri V-IX asrlar bo'lib bunda yirik yer egalari qiroli atrofida birlashuvi, davlat boshqaruvini amalga oshirishda Xristian cherkovining qo'llab-quvvatlanishiga tayanish davri;

ikkinchi davr – senorial monarxiya (lot. senior – “katta yoki to‘ng‘ich”, vassus – “xizmatkor”), davri X-XIII asrlar bo‘lib, feodal davlatni vassallik syuzerenligi prinsipi asosida siyosiy hokimiyat monarx va turli darajadagi feodallar o‘rtasida bo‘linib, syuzerlik vassal munosabatlari asosida davlat boshqaruvni amalga oshirish;

uchinchi davr XIV-XV asrlar sinfiy tabaqalar vakillari davri bo‘lib, bunda shaharlarning o‘sishi va savdo aylanmasining rivojlanishi, mulkdorlar qo‘lida yirik kapitallarning to‘planishi bilan bog‘liq iqtisodiy o‘shish G‘arbiy Yevropa jamiyatining sinfiy konsolidatsiyasini keltirib chiqardi. Yangi sharoitda davlatlarni asta-sekin milliy asosda birlashtirish, mulk vakillaridan yordam so‘ragan qirol hokimiyatini mustahkamlash davri sifatida sinf-vakillik organlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi;

to‘rtinchi davr absolyut monarxiya davri XVI-XVII asrlar bo‘lib, feodalizmning parchalanishi, kapitalistik tizimning asosiy elementlari shakllanishi, kuchli qirol hokimiyati tomonidan betartib kechayotgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, mutlaq monarxiya barcha davlat hokimiyatining, shu jumladan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati funksiyalarini qirol qo‘lida to‘planishi, qirol tomonidan byurokratik davlat boshqaruvini amalga oshirish va mamlakat ustidan to‘liq nazoratni o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan armiya va harbiy qo‘shinga ega bo‘lish davri bilan ajralib turardi [4, – S.212]. Demak, Qadimgi Rim imperiyasidan keyingi davrlarda G‘arbiy Yevropaning deyarli barcha hududlaridagi davlatchilik shakli o‘zining qayta evolyutsion davrini 1300-yil davr mobaynida bosib o‘tgan. G‘arb mutafakkirlarining o‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa davlatchiligini shakllanishi “Tundek qorong‘i” davr bo‘lgan deb ta‘riflashlari ham bejizga emas.

O‘rta asrlardagi G‘arbiy Yevropada yuzaga kelgan davlat boshqaruviga doir siyosiy-huquqiy va boshqa g‘oyalarni sotsiologik tahlil qiladigan bo‘lsak, dastlabki feodalchilik tuzumidagi adolat tamoyillari turli xil huquqiy odatlar va sud qarorlarining dastlabkilari Germaniya hududidagi huquqiy normalar yig‘indisini ichiga olgan V-VI arlardagi «Salik haqiqati» (lot. Lex Salica) deb nomlanuvchi franklarining qadimiy sud urf-odatlariga haqidagi yozuv bo‘lgan. Salik haqiqati Rim imperiyasidagi huquq tizimiga aloqasi yo‘q huquqiy normalar to‘plami bo‘lib, bu huquqiy yodgorlik qadimgi nemis xalqlariga tegishli bo‘lgan. VI-VII asrlardagi «Ripuar haqiqati» (Lex Ribuarica) «Aleman» va “Bavariya” (lot. Lex Alamannorum, Pactus Alamannorum) haqiqatlari deb nomlangan huquq normalari mavjud bo‘lib, bu frank german qabilasining qonun kodeksi hisoblangan. VIII-IX asrlarda «Sakson va «Tyuringiya» haqiqatlari deb nomlangan huquq normalari bo‘lib, unda asosan jinoyat turlari va unga nisbatan tayinlanadigan jazo turlari kiritilgan [5, – S.215].

Bizningcha, G‘arbiy Yevropaning Germaniya hududida shakllangan ilk huquqiy normalarning tarkibida davlat va jamiyatga taalluqli ba‘zi normalar mavjud bo‘lsada, bu normalarni davlat boshqaruvi va jamiyatni tartibga solish uchun maxsus ishlab chiqilgan normalar deb hisoblab bo‘lmaydi. Jamiyatdagi tartibotlar albatta o‘sha davrdagi mavjud davlatning qanchalik to‘liq shakllanganligiga bog‘liqdir. IX asrgacha G‘arbiy Yevropadagi davlatlarda davlat boshqaruvida feodal yer egalari va cherkovning ta‘siri kuchli bo‘lganligini hisobga olib, o‘sha davrga mos ravishda normalar mavjud bo‘lgan deb hisoblash mumkin. Shuningdek, O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropadagi davlat va jamiyat boshqaruviga doir huquqiy normalarni shakllanishida asosan to‘rtta huquqiy tizim katta rol o‘ynagan – bular Rim huquqi, shahar huquqi, kanon huquqi va feodal huquq tizimidir. Bu huquqiy tizimlar Yevropaning turli hududlaridagi huquqiy tizimlarga ta‘sir qilgan va davlatlarning milliy huquqiy tizimini bir-birlaridan farqlanib turishini ta‘minlagan.

Italiyalik faylasuf va teolog Foma Akvinskiy (Foma Akvinat, Tomas Akvinat, lot. Thomas Aquinas, ital. Tommaso d’Aquino 1225-1274) XIII asrda o‘zining jamiyat haqidagi qarashlari yoritilgan “Teologiyalar qiymati” asarining xatboshisida shunday degan: Nafaqat ijtimoiy, balki butun dunyo tartibi iyerarxiyaga, birining ikkinchisidan ustunligiga asoslanadi. Dunyo iyerarxiyasining eng yuqori darajasi Xudodir. Davlatdagi kuch Xudodan keladi. Men uchun hukumatning eng ko‘p afzali bu monarxiya» [6, – S.5]. Tommazo (Foma Akvinskiy) mutafakkir sifatida har tomonlama yetuk va alohida bir xarakterga ega bo‘lgan shaxs edi. U jamiyatdagi odamlarning xulq-atvorini tartibga soluvchi axloqiy me‘yorlar doim kuchli bo‘lishi kerak deb ta‘kidlagan, Tomazoning bu ta‘limotga ko‘ra, jamiyatdagi axloq normalariga rioya etilishi bu mamlakatning iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy sohaga aloqador deb hisoblagan.

Bizningcha, Tommazoning jamiyat haqidagi qarashlarida asosiy e'tibor ijtimoiy adolatga qaratilgan, shuningdek u o'zining siyosiy va iqtisodiy ta'limotlarida ham o'zining qarashlarini aynan adolat tamoyiliga asoslangan holda bayon qilgan. U insonlar o'rtasida ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan resurslarni taqsimlashda boshqalarning zarariga ishlaydigan har qanday asossiz imtiyozlar berish ya'ni adolatli taqsimotni qo'pol ravishda buzishni eng katta gunoh deb hisoblagan. Aristotel singari, u ham alohida odamlarning manfaatlaridan ko'ra jamoaviy manfaat muhimroqdir va adolat eng oliy fazilatdir, chunki u yuksak rivojlangan aqlni namoyon qiladi va bizni umumiy manfaat yo'lidan boshqaradi deb hisoblagan.

Shuningdek, Tommazo qonun va huquqqa ta'rif berib, qonun davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatning asosi bo'lmish adolatni ta'minlash vositasidir, qonun chiqarishdan maqsad jamiyatdagi odamlar o'rtasidagi normal munosabatlarni saqlashdir. Adolatli ish har kimni qilgan ishiga yarasha mukofotlashdir. Huquq esa tizimlashgan tartibda jamiyatdagi odamlar o'rtasida adolatni saqlash va ular o'rtasida imtiyozlarni to'g'ri taqsimlashdir. Tommazoning fikricha, huquqlarning ikki turi mavjud: birinchisi, tabiiy huquqlar, ya'ni odamlarni ijtimoiy strukturadagi tabiiy tengligi; ikkinchisi, kelishilgan kelishuvga asoslangan taqdim etilgan ijobiy huquqlardir. Aynan mana shu taqdim etilgan huquq davlat tomonidan imtiyozlarni adolatli taqsimlashiga taalluqlidir deb ta'kidlaydi. Shuningdek, Tommazo har xil turdagi munosabatlar va majburiyatlar, shartnomalar va kelishuvlar sohasida adolatni saqlash juda muhimdir. Qonunchilik sohasidagi adolat uning eng rasmiylashtirilgan versiyasidir [7, – S.61]. Demak, Tommazo jamiyat ijtimoiy hayoti uchun eng muhim bo'lgan ijtimoiy adolat deb ataladigan siyosatga katta ahamiyat bergan, u “Teologiya qiymati” asarida ijtimoiy adolatni ikki shaklga ajratishi ham bejizga emas. Undan birinchi maqsad, shaxslar-aro munosabatlarni tartibga solishdagi ijtimoiy adolat bo'lsa. Ikkinchisi esa, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi ijtimoiy adolatga qat'iy rioya etish orqaligina davlat va jamiyatning aql bilan, ya'ni ratsional boshqarish mumkinligini asoslab bergan.

Ingliz faylasufi va tabiatshunos olimi Yevropada “Ajoyib doktor” (lot. Doctor Mirabilis) laqabi bilan mashhur bo'lgan Rojer Bekon (1214-1292) ham davlat va jamiyat boshqaruviga doir o'z konsepsiyalarini ishlab chiqqan G'arb mutafakkiridan biri hisoblanadi. Rojer Bekon o'zining “Buyuk insho” (Opus Majus) nomli asarini turli muammolarni o'rganishga bag'ishlagan. Dastlab, u jamiyatda yashayotgan insonlar xatolarining sabablari o'rgangan, so'ngra o'sha davrlarning umumiy muammosini o'rganib, bu muammolarning bir-biriga bog'liq jihatlarini tahlil qilgan. Shuningdek, Rojer Bekon “Kichik insho” (Opus Minus), “Uchinchi insho” (Opus Tertium) va “Falsafa to'plami” (Compendium Studii Philosophiae) asarlarida falsafa va ilohiyot o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga, tabiatshunoslik muammolariga va matematika va fizika haqida o'zining ilmiy, falsafiy va ijtimoiy qarashlarini bayon etgan [8, – P.178].

Bizningcha, Rojer Bekon jamiyatdagi axloqiy muammolar, ya'ni ruhni qutqarish masalalariga yechim topish uchun Foma Akvinskiyning bilimning zarurligi va bilim bizning dunyomizda zarur ildizlarga ega ekanligi haqidagi pozitsiyasi qo'llab-quvvatlab, Tommazoning fikrlariga qo'shilgan. Lekin, Rojer Bekon, odamlarni yerdagi hayotini yaxshilash, ijtimoiy adolatni o'rtanish hamda davlat va jamiyatni oqilona boshqarish uchun ham bilim kerakligini ta'kidlab, jamiyatdagi ilmi odamlarni ko'payishi ko'plab ijtimoiy muammolarni bartaraf qilishi mumkin. Aks holda jamiyat rivojlanmaydi, jamiyat vakillari o'zlarining muammolari ichida o'ralashib qolib, taraqqiyot uchun uchun harakat qilmaydi. Agar jamiyat davlatning yagona manbasi bo'lsa, jamiyatning sifati davlatni sifatini ko'rsatadi degan xulosa kelgan.

XIII asrda Gumanistik harakatning asosiy markazi va Italiya Uyg'onish davrining poytaxti Florensiyada dunyo huquqiy tartibning diniy huquqiy tartibotdan ajratish lozimligi haqidagi ratsionalistik g'oya muallifi G'arbiy Yevropa o'rta asrlari shoiri va siyosiy mutafakkiri Dante Aligeri (1265-1321) edi. Dante Aligerining davlat va jamiyat boshqaruviga doir qarashlari uning “Monraxiya haqida” (De monarchia) asarida batafsil keltirib o'tilgan. Ushbu asarda Dante har qanday to'siqlar va turli diniy tUSDagi bosimlarga qaramasdan monarxiyaga asoslangan boshqaruvni isloh qilishga qaratilgan o'zining tanqidiy qarashlarini bayon qilgan. Jumladan, u ushbu asarda «Imperatorlarning mutlaq hukmronligining mazmuni shundan iboratki, yer yuzidagi hokimiyatni imperator Papadan emas, balki to'g'ridan-to'g'ri Xudodan oladi. Monarxning oliy ma'naviy hukmdordan (Rim

Papasidan) to'liq mustaqil bo'lishi odamlar uchun tinchlik va farovonlikni ta'minlaydigan zaruriy shart bo'lib, ularsiz insonning yerdagi maqsadini amalga oshirish mumkin emas [9, – S.192].

Foma Akvinskiyning ta'limotlaridan farqli ravishda Dante eng oliy maqsadni jamiyat taraqqiyoti o'z manziliga umumbashariy tinchlik va totuvlikka, amaliy ma'noda esa jahon monarxiyasiga yetaklovchi insoniyatni takomillashtiruvchi ongning taraqqiy etishida deb bilgan. Dante dunyodagi monarxiyaga asoslangan davlat va jamiyat boshqaruvini isloh qilishga doir quyidagi qarashlarini “Monarxiya haqida”gi asarida bayon qilgan:

Jamiyatdagi insonlarning bir maqsadi bor va unda yagona aql, yagona maqsad yagona boshqaruv tamoyilini talab qiladi, shuning uchun davlatni bir monarx boshqarishi kerak; butun monarxiyaning tuzilishi qolgan qismlarning tuzilishiga qaraganda yuqorida bo'lgani yaxshi, birinchisi ikkinchisining maqsadi, shuning uchun insoniyatning alohida qismlarining tuzilishi butunning tuzilishiga bo'ysunishi kerak;

butun olam ustidan hukmronlik qiluvchi yagona Xudo borligi kabi, inson zoti ham shu birlikdan namuna olishi kerak; davlatda yuzaga keladigan nizolar oqilona monarxning irodasi bilan bartaraf qilinganidek, dunyoda ham haqiqatni eng yaxshi umuminsoniy monarx o'rnatadi, chunki “butun inson zoti unga yaqindir”; monarxiyada hukmdorlar fuqarolar uchun mavjud, monarx uchun fuqarolar emas. Umumjahon monarx butun insoniyat uchun qonunlar chiqaradi va fuqarolar bu qonunlarni o'z mamlakatlari hamda mintaqalarida qo'llaydi; birlik oliy ezgulik ekan, birlikni ko'plikka qurbon qilish mumkin emas [10, – S.145].

Bizningcha, Dante ushbu asarida hokimiyatning ikki tamoyilini uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Monarx, papadan mustaqil hokimiyatga ega bo'lib, ota o'z o'g'liga mehribon bo'lgani kabi Papa hukmdorga nisbatan hurmat ko'rsatishi lozim, shunda hukmdor otasining duosi va inoyati bilan nurga to'lgan holda yanada buyukroq hukmronlik qila oladi. Dante uchun davlat ya'ni monarx eng oliy qadriyat bo'lib, Papa va monarx to'qnashganda, monarx doim g'alaba qozonadi deb hisoblagan. Shuningdek, davlat cherkov ishlariga aralashmasligini ko'p takrorlagan. Shu bilan birga davlatni bir kishi ya'ni monarx tomonidan adolatli boshqarishi cherkov esa o'zining diniy tamoyillari bilan faqatgina davlat ruxsat bergan sohalarda faoliyat yuritishini tarafdori bo'lgan. Eng asosiysi Papa monarx bilan Xudo o'rtasida vositachilik qilmasligini monarxning o'zi Xudo tomonidan tanlangan hukmdordir uni Papa Xudo uchun tanlab bermagan degan g'oyani ilgari surgan.

Demak, Dantening siyosiy ijtimoiy konsepsiyasida monarxning Papa cherkovdan mustaqilligini, shuningdek, davlatni Cherkov tomonidan o'rnatilgan diniy e'tiqod talablardan ozodligini himoya qilib, davlatni monarxning oqilonalik tamoyili asosda tashkil etish qobiliyatiga ishongan Dantening g'oyalari o'zi yashagan davridan ancha oldinda bo'lgan. Shuning uchun uning bu g'oyalari mazmun mohiyatini o'sha davrdagi ruhoniylar va davlat amaldorlarining ko'pchiligi tushunmasdan Dante turli tanqidlarga uchragan. Oqibatda, Dante 1302-yil Florensiyadan quvg'in qilingan va o'zining tug'ilib o'sgan ona shahriga qaytib kela olmagan. Dante uzoq davom etgan surganlardan keyin 1321 Ravenna shahrida vafot etgan.

Dante vafotidan ko'p o'tmay, boshqa italiyalik shifokor va ilohiyotchi Marsiliy Paduan (lot. Marsilius Patavinus. 1280-1343) 1324-yilda u “Tinchlik himoyachisi” (Defensor Pacis) kitobini yozdi. U har qanday jamiyat yoki davlat uchun eng katta yaxshilik tinchlik va osoyishtalik ekanligi, lekin uni boy va kambag'al, xalq va hokimiyat o'rtasidagi, dunyoviy (davlat) va diniy (cherkov) hokimiyatlar o'rtasidagi kelishmovchilik doimo buzadi, degan dalil bilan boshlanadi. Nizoning eng xavfli sababi bu “Diniy hokimiyatning yolg'on tushunchasi degan iboralardir. Cherkov timsolidagi diniy kuch dunyoviy hokimiyat ishlariga aralashib, «Yevropa davlatlarini, ayniqsa Italiyani tinchlikdan mahrum qiladi» [11, – S.154].

Marsiliy Paduan G'arbiy Yevropa o'rta asrlarning taniqli mutafakkirlaridan biri bo'lgan. Uning davlat boshqaruvidan chirkov ta'sirida va diniy ruhdagi bosimlardan ozod qilishga qaratilgan o'tkir siyosiy g'oyalari o'sha davrda shakllangan barcha ijtimoiy taraqqiyot qoidalariga zid edi. Uning ta'limoti bid'at deb tan olinmagan. Ammo, u dunyoviy hokimiyatning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha taklif qilgan konsepsiya davlat va jamiyat boshqaruvini cherkovning diniy buyruqlari ta'siridan chiqarish bo'yicha Yevropadagi birinchi ratsionalistik ijtimoiy siyosiy g'oya bo'lgan.

G'arbiy Yevropa o'rta asrlarida davlat va jamiyat boshqaruviga doir o'z konsepsiyasini ishlab chiqqan yana bir G'arb mutafakkiri Nikkolo Makiavelli (ital. Niccolò di Bernardo dei Machiavelli. 1469-1527) edi. Makiavellining siyosiy fikr tarixiga "Hukmdor" (Del Principe, 1513), "Titus Liviusning birinchi o'n yilligi haqidagi mulohazalar" (1512-1519), "Harbiy san'at haqida yetti kitob" (1521), "Florensiya tarixi" (1525) asarlari bilan kirib kelgan. Bu asarlar ichida uning "Hukmdor" asari alohida o'rin egallaydi. Makiavelli ham o'zidan oldingi G'arb mutafakkirlarining siyosiy g'oyalarini davomchisi sifatida davlat va jamiyat boshqaruvini diniy qonunlardan mustaqil bo'lgan siyosiy ta'limotlarni ishlab chiqqan. Uning ta'limoti siyosiy amaliyotni amalga oshirishda kuzatish, tarix va inson ruhiyatini o'rganish asosiga qurilgan deb hisoblash mumkin.

Makiavellining fikricha, "Odamlarning xatti-harakatlarini bir-xil xirs va intilishlar belgilaydi. Inson tabiatining zaminida amalparastlik, g'arazgo'ylik yotadi. Jamiyatdagi ba'zi odamlar subutsiz, noshukur, qo'rqqoq, munofiq, ichi qora, boshqalarni ko'ra olmaydigan xossalarga egadirlar. Qobiliyati cheklangan bo'lsa ham o'z imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi xohishlariga erishish uchun hech narsadan tab tortmaydilar. Ular doim hozirgi kundan norozi, o'tmishni maqtaydilar, taqlid qilishni sevadilar, lekin yaxshi narsalarga nisbatan yomon odatlarni tezroq o'zlashtiradilar. Inson – o'zining dunyoga kelishini batamom asosli ravishda katta yig'i bilan olqishlovchi eng ojiz va sho'rpehona maxluqdir", deb ta'riflagan [12, – S.38].

Makiavelli zo'ravonlikka asoslangan kuchli davlat va faol va ijodkor, jamiyat barqarorligini hamda davlat va jamiyatning hayotiyiligini saqlashga chaqiruvchi kuchli va ma'rifatli shaxsni tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi. Uning tushunchasiga ko'ra, siyosiy rahbar – bu odamlarni samarali boshqarishga qodir, ularning ehtiyojlari, manfaat va intilishlarini, ularning xatti-harakatlari va qilmishlarining sabablarini biladigan suverendir. Butun jamiyatni birlashtiruvchi va ifodalovchi siyosiy subyekt sifatida u ijtimoiy tartibni saqlash, davlat va o'z hukmronligini saqlash uchun har qanday vositalardan foydalanishi lozim. Shuningdek, Makiavelli "Hukmdor" asarining xotimasida "Men hukmdorlarga zolim bo'lishni, unga bo'ysunuvchi tobelarga (mamlakat fuqarolariga) esa ushbu zulmdan qanday qutulishni o'rgatganman" deb, ham davlatni boshqarishda turli xil noroziliklar va qo'zg'olonlarni bostirish yo'llarini o'rgatib, bir vaqtning o'zida xalqni bu zulmlardan qanday qutilishi kerakligini yozib, ham davlat ham jamiyatning qilmishlari va uning oqibatlarini qanday tugashi mumkinligini modellashtirib bergan [13, – S.77-95].

Bizningcha, Makiavellining "Hukmdor" asarini birinchi marta o'qigan kitobxonda, Makiavelli kim tarafda? U davlat hukmdori tarafidami yoki xalq tarafidami? Degan savol tug'ilishi tabiiy. Ammo asarni sotsiologik tahlil qiladigan bo'lsak, shunday tushuncha shakllanadiki, jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy kayfiyatini doimiy ravishda tahlil qilib borish zarur. Agar jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy xulq-atvori salbiy tarafga o'zgargan bo'lsa, insonlarda davlatga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati, ijtimoiy hayot qiyinchiliklari odamlarni qonunlarni buzishga olib keladigan bo'lsa, davlat hukmdori tezda bunga chora ko'rib, bu betartibliklar kengayib butun davlat hududiga tarqalib katta bir siyosiy harakatga aylanib, oqibatda davlat xavfsizligi xavf soladigan bo'lsa, davlat eng keskin choralarni ko'rishni taklif qilgan. Albatta bunday choralar ko'rilgandan so'ng vaziyatning sabablarini tezda o'rganib chiqib, yo'l quyilgan xatolarni tuzatish zarurligini davlat hukmdorlariga o'rgatgan. Bu tushunchani aksi sifatida davlat hukmdori mutlaq vakolatga berilib, tartibli va ma'rifatli jamiyatni turli taraflardan siyosiy siquvlarga olib, jamiyatga nisbatan zulm o'tkazilayotgan bo'lsa, u jamiyatga bunday zulmdan qutulish yo'llarini o'rgatib, siyosiy rejimni o'zgartirishga ta'sir ko'rsatish choralari sifatida qo'zg'olonlar va noroziliklarni tashkil qilish va o'tkazishni o'rgatgan.

Makiavellining G'arb davlatchilik tarixidagi yana bir xizmati shundaki, u birinchi bo'lib siyosiy atama "Davlat" (stato) degan tushunchani siyosiy iste'molga kiritgan. Makiavelli ta'limotiga ko'ra, davlat institutsional tashkiliy subyekt sifatida boshqaruv tuzilmasi yoki davlat apparatidan kengroq tushunchadir. Davlat – bu boshqaruvchi va boshqariladigan jamiyatning siyosiy holati, tashkilotchi iste'dodi va siyosatshunos donoligining muvaffaqiyatli uyg'unligidir. Bular siyosiy munosabatlar, hukmronlik va bo'ysunish munosabatlari. Davlat siyosiy hokimiyatning tashkilotidir. Makiavelli davlat institutlarining eng yaxshi namunalarini hozirgi va kelajakda emas, balki o'tmishda ko'radi. "Munozaralar" asarida u siyosatchilarni hech qachon tarixni o'rganish uchun murojaat

qilmaganliklarini qoralaydi, “o‘tmishning buyuk namunalariga taqlid qilish juda qiyin va hatto imkonsiz deb hisoblaydi, go‘yo odamlar hali ham avvalgidek emas. Zamonlar o‘tishi bilan odamlar ham ularning tabiati ham o‘zgarib ketadi, deb o‘zlarini oqlaydilar. Inson tabiati o‘zgarmaydi. Inson shunday yaralgan, faqat uning xulqi siyosiy va ijtimoiy muhit sababli o‘sha muhitga yoki moslashadi yoki muhitni o‘zlarini tabiatiga moslashtiradi” deb ta’kidlaydi [14, – S.135].

XVI asrda Fransiyada yashab ijod qilgan, davlat va jamiyat haqidagi o‘zining konsepsiyasini ishlab chiqqan yana bir G‘arb Mutafakkiri Jan Boden (1530-1596) edi. Jan Boden o‘zining “Davlat haqidagi olti kitob” (Les six livres de la Republique) asarida davlat va jamiyat boshqaruviga doir konsepsiyasini bayon qilgan. Jan Boden davlat va jamiyat boshqaruvida qirol absolyut vakolatga ega bo‘lishi lozim degan g‘oyaning tarafdori bo‘lgan. Qirol suverenitet, ya’ni hokimiyatning cheklanmaganligi, mamlakat qonunlaridan xam ustuvor bo‘lishi lozim deydi. Bodenning ta’riflashicha: “Suverenitet, bu qonunlarga itoat qilishdan ozod bo‘lgan garajdanlar ustidan o‘rnatilgan hokimiyatdir. Suveren o‘zi qabul qilgan qonunlardan ozoddir, ammo qirol hokimiyati hech qanday norma bilan cheklanmagan degan tushuncha emas. Hokimiyat Xudo qonunlariga va tabiiy qonunlarga itoat qilishi shart. Bundan tashqari, deydi Boden, suveren fuqarolarning xususiy mulkini hurmat qilishi, unga tajovuz qilmasligi zarur. Suverenitet yagona va bo‘linmas bo‘lganligi uchun doim bir shaxs yoki bir kengash qo‘lida bo‘ladi. Suverenitet faqat qirolning qo‘lida bo‘lishi kerak, suverenitet aristokratiya sinfining yoki xalqning qo‘lida bo‘lishi mumkin emas. U bir necha turli organlar o‘rtasida taqsimlanmaydi, yoki navbat bilan undan foydalanilmaydi” [15, – S.382].

Bodenning fikricha, aristokratiya monarxiya bilan demokratiyaning o‘rtasidagi davlat shaklidir. Aristokratiyaning afzalligi shundaki, unda hokimiyat saxovatli zodagonlar va badavlat kishilar qo‘lida bo‘ladi. Biroq, aristokratiya, turli partiyalar janjallari va shuhratparastlar kurashiga va isyonlarga qarshi turolmaydi. Shuningdek, u monarxiyadagina bir butun va bo‘linmas davlat hokimiyati mavjud. Birlik bo‘lmagan joyda oliy hokimiyat ham yo‘q. Davlat hokimiyatining birligini ta’minlovchi birdan-bir davlat shakli monarxiyadir. Davlat hokimiyatini ustida turgan monarx qarama-qarshi davo va intilishlarning bir-biriga kelishtiradi va qarama-qarshi elementlarning uyg‘unlashgan birligini yaratadi. qonuniy monarxga bo‘ysunishni targ‘ib qilish bilan birga, Boden tiraniyaga qarshiligini bildiradi. Zo‘ravonlik yo‘li bilan hokimiyatga kelgan kishi tirandir. Unga qarshilik ko‘rsatish, uni og‘dirish, hatto o‘ldirib tashlash xam man qilinmaydi, deydi [16, – S.402].

Jan Bodenning ilgari surgan davlat suvereniteti g‘oyasini Yevropa uyg‘onish davridagi siyosiy, ijtimoiy va huquqiy ta’limotlar rivojlanishining keyingi taraqqiyoti uchun yo‘l ochib bergan g‘oyalardan biri deb ta’riflash mumkin. Shuningdek, Arablar Ispaniyani bosib olib, Yevropa hududiga kirib borishi Yevropa olimlari uchun uzoq vaqtlardan buyon Suqrot va Aristotelning asarlari tushunarsiz bo‘lib qolgan vaqtda Sharq mutafakkirlaridan Forobiy, Ibn Xaldun, Farg‘oniy, Beruniy va Ibn Sino kabi ko‘plab Sharq olimlarining sermahsul ijodi Yevropaga Aristotelni qayta kashf qilib berdi. O‘z navbatida Sharq mutafakkirlarining bu mehnatlari G‘arbdagi tarqoq bo‘lgan siyosiy, huquqiy hamda ijtimoiy konsepsiyalarni birlashtirish va konsepsiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish imkonini berdi.

Yevropa “Ma’rifatparvarlik davri”da siyosiy g‘oyalarni o‘zining qarashlari bilan rivojlantirgan ingliz mutafakkiri Tomas Gobbsning (ingl. Thomas Hobbes. 1588-1679) qarashlari sotsiologik tahlil qilish uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Gobbs ham o‘zidan oldingi fransuz mutafakkiri Jan Bodenning qarashlarini qo‘llab-quvvatlagan holda davlat boshqaruvida monarxiya boshqaruvini boshqaruvning eng qulay varianti deb hisoblaydi. Gobbs o‘zining “Leviatan” asarida insonlarning davlat paydo bo‘lgunigacha bo‘lgan davrdagi hayotini tasvirlab, unda “Xaos” va “Ixtilof”lar hukmron bo‘lganligini ta’kidlaydi yoki bu hukmronlikni “Hammaning hammaga qarshi urushi” holati sifatida qayd etib, bunday holatdan chiqishning yagona yo‘li bu – Ijtimoiy kelishuvga erishish deb bilgan. Gobbs monarxning asosiy vazifasi sifatida davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar ijrosini ta’minlash va ushbu qonunlarni uzoq vaqt saqlab qolish, deb ta’kidlagan. Bu fikrga faqatgina ingliz pedagog olimi J.Lokk (1632–1704) qarshi fikr bildirib, davlat siyosatida fuqarolar ishtirokini kengaytirishga qaratilgan konsepsiyani ishlab chiqqan. J.Lokk konsepsiyasi Gobbs konsepsiyasiga nisbatan real hayotga asoslanganligi va davlat boshqaruvida cheklangan monarxni o‘rnatish tarafdori ekanligi bilan ajralib turadi.

Gobbs ratsional davlat boshqaruvini tashkil qilish va mamlakatda tinchlikni ta'minlash uchun jamiyat bilan tuzadigan ijtimoiy shartnomaning shartlari sifatida, o'tgan xafachiliklarni kechirish, boshqalarga hurmat, o'z tabiatiga ko'ra odamlar teng ekanligini tan olishi, ya'ni hukmdorlar, amaldorlardan iborat aristokratiya sinfi ham boshqa odamlar jinsidan ekanligini tan olish, jamiyat ijtimoiy strukturasidagi ijtimoiy toifalarni ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar o'zi kabi odam, deb qabul qilish kabi shartlarni keltirib o'tgan. Gobbsning ta'kidlashicha davlat ham mana shu shartnoma mahsulidir. Odamlar umumiy tinchlik va o'z muhofazasini ta'minlash uchun ixtiyoriy ravishda urush holatini bartaraf qilishga qodir hokimiyatni joriy qilishga kelishadilar. Bu kelishuvda har bir individ davlat foydasiga o'z erkidan voz kechadi [17, – S.505].

Angliyalik mutafakkir Jon Lokk (ing. John Locke. 1632-1704) o'zining davlat va jamiyat boshqaruvi hamda siyosiy qarashlarida davlatchilik va jamiyatshunoslik fanlari tarixida birinchi bo'lib “shaxs”, “jamiyat” va “davlat” tushunchalarining tahlilini bergan. Shuningdek, u shaxsni jamiyat va davlatdan yuqori qo'ygan birinchi mutafakkir hisoblanadi. Lokkning fikricha, inson tug'ilganidan boshlab tabiiy huquqlarga ega bo'ladi. “Hayot” yoki “Yashash”, “erkinlik” va “mulkka ega bo'lish” huquqlarini ana shu huquqlar jumlasiga kiritadi. U xususiy mulkka ega bo'lish huquqini quyidagicha asoslaydi. Birinchidan, xususiy mulkka ega bo'lish insonning o'zini va uning oilasining yashashi uchun zarur ehtiyojni ta'minlash uchun kerak, inson yashab qolish va mavjud bo'lishi uchun zarur narsalarga ega bo'lgan taqdirdagina o'zining rivojlanishiga alohida e'tibor berishi mumkin. Xususiy mulk mutlaq qadriyat emas, aksincha, erkin jamiyatga erishish vositasidir. Insonlar mulk jamg'arishda erkin bo'lishlari kerak. Ikkinchidan, mulkka ega bo'lish inson individualligini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat jamiyatga, jamiyat o'z navbatida shaxsga bo'ysunishi lozim. Davlat va jamiyat bir narsa emas, davlat hokimiyatining qulashi jamiyat rivojining tugaganidan dalolat bermaydi. Jamiyat yangi davlat hokimiyatini o'rnatishi lozim. Davlat shaxs huquqlarini himoya qilish maqsadida faoliyat ko'rsatadi. U shaxsdan kuchliroq bo'lishi mumkin emas, chunki shaxs jamiyatni, jamiyat esa davlatni tashkil etadi. Lokk qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati bo'lishini yoqlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatga ustuvorlik beradi, chunki u davlatning siyosatini belgilaydi deb ko'rsatadi [18, – P.141].

Jon Lokkning taklif etgan “shaxs”, “jamiyat” va “davlat” tamoyili O'zbekistonga dastlab mustaqillik davrining boshlarida “davlat”, “jamiyat” va “shaxs” ko'rinishida konstitutsiya va boshqa qonunlarda o'z aksini topgan bo'lsa, 2023-yildan Yangi O'zbekistonda “inson”, “jamiyat” va “davlat” tamoyili, konstitutsiya va boshqa qonunlarda mustahkam belgilab qo'yildi.

Fransiya ma'rifatparvari Sharl Lui Monteskyo (fran. Charles Louis de Secondat, Baron de La Brède et de Montesquieu 1689-1755) o'zining «Qonunlar ruhi» asarida “Idora etish tarzi»ga yoki “Qonunlar ruhi”ga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib beradi. Uning ta'kidlashicha, “Iqlim, din, qonunlar, idora etish shakllari, o'tmish saboqlari, axloq, odatlar xalqning umumiy ruhining natijasi sifatida insonlarni boshqaradi”. Monteskyo ta'limotining mohiyati har bir qonunning ruhi bir qancha aniq shart-sharoitlar bilan belgilanganligidir. Bu shart-sharoitlarning har biri o'ziga xos ahamiyat kasb etishini aniqlashga qaratilganligidadir. Qonun chiqaruvchi birinchi navbatda iqlim bilan hisoblashishi zarur. Issiq iqlim xalqni noziklashtiradi va erinchoq qiladi. Shuning uchun bu yerda jazo bilan qo'rqitish odamlarni ishlashga majbur qiladi. Davlat despotizm shaklida bo'ladi. Yerning hosildorligi, tog'lar va orollar, tekisliklar, ya'ni iqtisodiy muhit, dinning roli ham qonunlar ruhiga ijobiy ta'sir qiladi, deb hisoblaydi [19, – S.288].

Bizningcha, Monteskyoning konsepsiyasida va siyosiy qarashlarida sotsiologiya uchun muhim jihatlari bor. Jamiyatni tartibga solishga qaratilgan huquqiy me'yorlar ko'pincha universal ko'rinishga ega bo'lib turlicha geografik iqlim sharoitida yashovchi aholi uchun doim ham mos kelmaydi. Shu sababdan jamiyatning huquqiy normalarga rioya etish darajasi tushib ketib uning o'rnini turlicha lokal yoki etnik normalarni yaratilishiga sharoit yaratadi. Monteskyoning qarashlari jamiyatlarni etnosotsiologik tahlil qilishda muhim jihatlari ko'p va bu asarni Ogyust Kontgacha bo'lgan davrdagi to'laqonli sotsiologik asar deb baholash mumkin.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, G'arbiy Yevropaning davlatchilik tarixini sotsiologik tahlil qilish o'sha davrlardagi jamiyat sotsial strukturasini, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy

munosabatlarni davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirish imkonini berdi. G'arbiy Yevropa miloddan avvalgi Qadim Rim va Afina davlatlari bilan boshlanib, ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan bo'lsada, Sharq mamlakatlari singari o'z davlatchiligini milodiy V asrlardan keyin ushlab qola olmagan.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida davlat boshqaruvini sotsiologik tahlil qiladigan bo'lsak, V-IX asrlarda ilk feodal monarxiya davri bo'lib, davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalar faqat katta yer egalari va Xristian cherkovi orqali amalga oshirilgan, X-XIII asrlarda feodal davlatni vassallik syuzerenligi prinsipi asosida davlat va jamiyat o'rtasidagi har qanday aloqalar uzilib qolib, jamiyat davlat uchun faqat mehnat resurslaridan foydalanish, harbiy kuchlarni yig'ish, soliq to'lash uchun kerak bo'lib, syuzerlik vassal munosabatlari davlat va jamiyat o'rtasida aloqadorlikni ta'minlagan. XIV-XV asrlarda ko'plab davlat amaldorlarining boy bo'lib ketishi natijasida sinfiy tabaqalanish yuzaga kelib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ham o'zgarishiga olib kelgan. Bu shaharlarning kengayishi iqtisodiy o'sishi, mulkdorlar qo'lida yirik kapitallarning to'planishi bilan bog'liq stratifikatsion jarayonlarning tartibga kelishi uchun sharoit yaratgan davr deb ham baholash mumkin.

O'rta asrlardagi G'arbiy Yevropa mutafakkirlari asarlarini sotsiologik jihatdan tahlil qilishda davlat siyosatining mavjud ijtimoiy normalarga bog'liqligiga, siyosiy hodisalarning ijtimoiy sabablari va zaruratiga, iqtisodiy munosabatlarning jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarga bo'linishga ta'siri, jamiyat ijtimoiy ongidagi mafkura va madaniyatning davlat boshqaruvi siyosatiga ta'sir etishini tahlil qilish orqali sotsiologik xulosalar berish imkonini beradi. Chunki, sotsiologik yondashuv har qanday siyosiy va ijtimoiy hodisalarni jamiyat va shaxs uchun ahamiyatini aniqlash, ularni jamoaviy birdamlik, hamjihatlilik, farovonlik, adolat, erkinlik, shaxs ijtimoiy maqomini e'tirof qilish nuqtayi nazaridan baho berishni taqozo etadi.

#### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Крашенинникова Н.А., Жидкова О.А. История государства и права зарубежных стран. – М.1.1991. – С.285.
2. Графский В.Г. Всеобщая история государства и права: учебник для вузов. 2-е изд. – М., 2005. – С.219.
3. История государства и права зарубежных стран. Учебник. Т. 1 / Жидков О.А., Крашенинников Н.А., Савельев В.А., Струнников В.Н., и др.; Под общ. ред.: Жидков О.А., Крашенинников Н.А. – М.: Норма, 1996. – С.187-192.
4. Прудников М.Н. История государства и права зарубежных стран : учебник для бакалавров. 6-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт ; ИД Юрайт, 2013. – С.212.
5. Прудников М.Н. История государства и права зарубежных стран : учебник для бакалавров. 6-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт ; ИД Юрайт, 2013. – С.215.
6. Аквинский Фома. Сумма теологии. Ч.1/Пер. С.И.Еремеева, А.А.Юдина. – Киев, Ника центр. 2002. – С.5.
7. Аквинский Фома. Сумма против язычников. Кн.2/Пер. и прим. Т.Ю.Бородай. – М., 2004. – С.61.
8. Lindberg D.C. «Roger Bacon's Philosophy of Nature. A Critical Edition, with English Translation, Introduction, and Notes, of De multiplicatione specierum and De speculis comburentibus». – Oxford. 1983. – P.178.
9. Данте Алигьери. Монархия / Пер. с итал. В.П.Зубова. – М.: «Кучково поле». 1999. – С.192.
10. Данте Алигьери. Монархия / Пер. с итал. В.П.Зубова. – М.: «Кучково поле». 1999. – С.145.
11. Марсилией Падуанский. Защитник мира. Defensor pacis/Пер. с франц. Б.У. Есенова; науч.ред., вступ.ст., примеч. Г.П.Лупарева. – М.: Дашков и Ко. 2014. – С.154.
12. Никколо Макиавелли «Государь»/Пер. Г.Муравьевой. – М. «Художественная литература», 1982. – С.38.

13. Никколо Макиавелли «Государь»/Пер. Г.Муравьевой. – М. «Художественная литература», 1982. – С.95.
14. Никколо Макиавелли: Государь. С комментариями и объяснениями. Пер. Г.Муравьева. – М.: Издательство: АСТ, 2020. – С.135.
15. Боден Жан. Метод легкого познания истории / перевод с латинского языка, статья, примечания М.С.Бобковой. – М.: Наука, 2000. – С.382.
16. Боден Жан. Метод легкого познания истории / перевод с латинского языка, статья, примечания М.С.Бобковой. – М.: Наука, 2000. – С.402.
17. Томас Гоббс. Левиафан/пер.А.Гутермана. – М.: Издательство АСТ, 2021. – С.505.
18. Boeker R. Locke on Persons and Personal Identity. – Oxford, 2021. – P.141.
19. Раймон Арон. Часть первая. Основоположники. Шарль Луи Монтескье // Этапы развития социологической мысли = Les Étapes de la pensée sociologique. (1967) / общ.ред. и предисл. П.С.Гуревича. – М.: Издательская группа «Прогресс», «Политика», 1992. – С.288.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000